

**ADABIYOTNINING SHAXS PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI VA
ADABIYOTDA SHAXS PORTRETI.**

Yuldasheva Maloxat Erkinovna

Qo'qon DU, PhD.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiyotning shaxs psixologiyasiga ta'siri va psixologik tamoyillar asosida shaxsdagi psixologik o'zgarishlarning dinamik jarayon sifatidagi mohiyati aks etgan. Maqolada mualliflik g'oyalari asosidagi adabiyot va shaxs integratsiyasi muammosiga to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Shaxs, adabiyot, determinizm tamoyili, ong va faoliyat birligi tamoyili, psixika va onging faoliyatda rivojlanish tamoyili,*

Shaxs psixologiyasini o'rganishga qaratilgan qator jahon olimlarining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, shaxs psixologiyasining murakkabligi va dunyo svilizatsiyasining reaksion taraqqiyoti shaxs muammosini tadqiq etishdagi yangi muammolar oqimini vujudga keltirmoqda. XXI asr boshlarida mavjud bo'lgan shaxs psixologiyasi haqidagi bir qator gipotezalar va tendensiyalar bizning mulohazalarimizga ko'ra mohiyatan o'zgargandek.

Ushbu mulohaza vujudga kelishiga asosiy sabab shaxs psixologiyasini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarishidadir. Shaxs rivojlanishida va shakllanishida asosiy omillardan biri sotsiologik omillarning strukturasi va mazmuni o'zgarib borishi, ya'ni axborot oqimlarining mazmunan kengayishi, sifati, xarakteri, shaxs akseleratsiyasini jadallashtirish bilan birga uning ongi, hulqi, dunyoqarashi, xarakteriga keskin va sezilarli ta'sirini ko'rsatmoqda.

Shaxs psixologiyasida chuqur iz qoldirayotgan axborot ko'lamlarining chegarasi mavjud emas ekan ushbu axborotlarning mazmunini o'zgartiribgina shaxs psixologiyasini shakllanishidagi ijobiylikni vujudga keltirish mumkin. Aynan ushbu muammoning yechimlaridan biri bu adabiyotdir. Adabiyot shu jumladan badiiy adabiyotning shaxs psixologiyasiga ta'sirini o'rganish hozirgi zamon psixologiyasining dolzarb muammolaridan biridir.

Adabiyotshunos olim Oybekning fikricha adabiy asarlar turmushni jonli ko'rsatib, odamlarning fikr va tuyg'ulariga kuchli ta'sir qiladi. Badiiy chuqur, fikr-his jihatidan to'la adabiy asarlar o'quvchini uzoq vaqt bog'lab, asir qilib oladi. Adabiyot turmushni abstrakt (mavhum) tushuntirmay, konkret (aniq) badiiy umumlashtirib, jonli anglatadi. Adabiy asarlar ila ma'lum bir yo'nalishda ommani tarbiya qilish, madaniy saviyasini, zavqini ko'rsatish mumkin. Adabiyot xalqning jon-tani bo'lgan bir ishdir, shuning uchun bizning bu sohadagi har bir muvaffaqiyatimizni, maydonga chiqqan har bir qimmatli asarni xalq o'z g'alabasi, deb biladi [3].

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Adabiyotshunos Oybekning ushbu muloxazasiga tayangan holda adabiyotda ma'lum bir xalqning psixologiyasi, etnologik xususiyati va submadaniyati aks etishi bilan psixologiyaning o'rganish manbasiga ham aylanadi, ya'ni xalqlar psixologiyasi fanining tadqiqotlari markazi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlarimiz davomida shuni aniqlandiki adabiyot serqirra jarayon bo'lib, unda ma'lum bir davr, muhit, madaniyat, siyosiy tuzum maxsuli bo'lgan shaxsning psixologiyasini o'rganish imkonini berib, psixologiya fani uchun shaxs psixikasining evolyutsion dinamokasini ham aniqlash imkonini beradi. Misol uchun antik dabrda yaratildan adabiy asar va o'rta asrlarda yaratilgan adabiy asar voqealari rivoji va mazmunida shu asr kishisiga xos bo'lgan psixik taraqqiyotni aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek badiiy asarlar qaxramonlari asosida shu shaxs uchun psixologik portret chizish imkonini ham vujudga keltiradi. Masalan Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni qaxramoni Majnunning aqldan ozishi — ruhiy iztirob ifodasini olaylik.

"Majnun bo'ldi, aqlin qo'ydi yiroq,
Ishq o'tida yondi, bo'ldi har yoq."

Ushbu misralar tahliliga ko'ra Majnunni aql tark etishi — sevgi tufayli ruhiy muvozanatni yo'qotganini bildiradi. Psixologik nuqtai nazardan, bu holat obsessiv muhabbat (majburiy fikrlar va hislar) holatiga o'xshaydi. Bu iztirob o'quvchida hamdardlik uyg'otadi va insoniy his-tuyg'ularning kuchini ko'rsatadi.

Shaxsning ruhiy holatini qamrab oladigan serqirra badiiy asarlar zamirida adabiyotning kuchi namoyon bo'ladi. Adabiyotning shaxs psixikasini shakllanishidagi rolini psixologiyaning bir qator tamoyillari bilan bog'lash o'rinlidir. Tadqiqotimiz davomida psixologiyaning determinizm tamoyili, ong va faoliyat birligi tamoyili, psixikaning faoliyatda rivojlanishi tamoyillari asosida adabiyotning shaxsga ta'siri o'rganildi [1].

Determinizm tamoyili– har bir psixik hodisa sababsiz yuz bermaydi, u muayyan omillar ta'sirida shakllanadi goyasi asosida aniqlangan tadqiqotimiz natijalariga ko'ra adabiyot inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etib, qaxramonlarning ruxiy kechinmalari, kayfiyati, xatti – xarakatlari mutoola qiluvchi insonning psixikasi ko'chishi, uning hissiyotlariga sezilarli ta'siri aniqlandi. Misol uchun sarguzash asar o'qiyotgan osmirning asar qaxramonining g'alaba uchun mashaqqatli kurashlari va oqilona yo'l bilan erishgan g'alabasi o'smirda g'alabaga bo'lgan intilish va ushbu holatni takrorlash kabi yoqimli xislarni vujudga keltiradi. Asar qaxramonining ayanchli taqdiri esa mutoola qilguvchida nafrat va g'azab kabu astenik xislarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Shuningdek adabiyotda hulq va harakterning qaxramonlar timsolida mavjudligi shaxs xarakteri va hulqini shakllanishiga ta'sir etadi.

Ong va faoliyat birligi tamoyili – inson ongingning rivojlanishi uning faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Faoliyat orqali ong shakllanadi va o'zgaradi. Ushbu tamoyil asosida shaxsning adabiyot bilan muttasil bog'liqlikda hayot kechirishi uning

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

dunyoqarashi, aqliy qobiliyati, fikrlash qobiliyati, fikrlash madaniyatiga hamda muloqot faoliyatini rivojlanishiga mutloq ta'sir etadi. Muttasil ravishda badiiy adabiyot mutoolasi bilan faoliyat olib brogan insonning faoliyatlari natijasida ong taraqqiyoti intinsivlashadi. Ushbu faoliyat natijasita shaxs tafakkuri mazmunan chuqurlashib boradi. Natijada shaxsning nutqiy faoliyati ham takomillashib, so'z boyligi ortib boradi.

Psixikaning faoliyatda rivojlanishi tamoyili – psixik jarayonlar va xususiyatlar inson faoliyati davomida rivojlanadi va takomillashadi. Ushbu tamoyil asosida shaxsning adabiyotga bo'lgan motivlari va qiziqishlari shaxsning bilish jarayonlariga kuchli ta'sir etib boradi[2]. Shaxsning bilish jarayonlariga adabiyotning ta'sirini quyidagi rasm asosida namoyon bo'ladi.



Shaxsni adabiyot bilan uzviyligini ta'minlash natijasida uning individualligi o'ziga xoslik kasb etib boradi. Shaxsning qobiliyati, xarakteri, temperamenti shular jumlasidandir. Adabiyot olami va muhiti shaxsning nutq, muloqot kabi ijtimoiy

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

qobiliyatlari bilan birga kommunikativ, tashabuskorlik, kreativlik kabi bir qator qobiliyatlarni ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda shaxs psixologik jarayonlarga ko'ra ijtimoiy mavjudotdir. Shu sababdan uning adabiyot bilan aloqadorligi ham oila va muhit ichida sodir bo'ladi. Adabiyotning shaxsga psixologik ta'sirini o'rganish asosida shaxs psixikasini dinamikasini, xususiyatlarini o'rganishga yangicha yondoshuvlarni kashf etish mumkin. Shuningdek adabiyot ta'sirida shaxs psixologiyasida ijobiy iqlim yaratish va ruhiy barqarorlikni mustahkamligini ta'minlash mumkin deb xulosa qilish o'rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Zufarova. Umumiy psixologiya. Toshkent-2010 yil.O'zbekiston faylasuflari milliy nashyoti.
2. E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. Toshkent- 2009 yil. Fan va texnologiya nashyoti.
3. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/yozuvchilar-adabiyot-to-g-risida>

